




2021- yil yanvar-aprel
oylarida
Qashqadaryo viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **977,4** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **3718,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,8 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)

977,4
mlrd. so'mga

Hajmning o'sishi

3718,4
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

122,8 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 3718,4 | 122,8 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 185,9 | 118,0 |
| Moliyaviy xizmatlar | 635,4 | 127,1 |
| Transport xizmatlari | 763,1 | 129,1 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 735,4 | 130,4 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 109,8 | 113,0 |
| Savdo xizmatlari | 1137,9 | 110,8 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 101,2 | 134,6 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 171,6 | 143,5 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 57,0 | 130,9 |
| Ijara xizmatlari | 113,3 | 145,1 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 127,1 | 138,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 123,2 | 131,0 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 48,4 | 127,4 |
| Boshqa xizmatlar | 144,5 | 121,9 |


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **30,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **3,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **33,0 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **3,1 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoxda.

2021- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish ijara (**45,1 %**) ta'lim (**43,5 %**), kompyuterlarni ta'mirlash (**38,6 %**), kuchmas mulk (**34,6 %**) sog'lijni saqlash (**30,9 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayishi boshqa xizmatlar (**21,9 %**) sohasida qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel ta'lim sohasidagi xizmatlar da yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **114,4 %**.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan – **77,2 %**.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmining eng yuqori hajmi Koson (230,6 mlrd. so'm), Kitob (212,2 mlrd. so'm), Chiroqchi (207,9 mlrd. so'm) va Yakkabog' (181,9 mlrd. so'm) tumanlari, hamda Qarshi shahrida (1 402,7 mlrd. so'm) qayd etildi.

Tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm (2021- yil yanvar-aprel oylarida)




Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-aprel oylarida Qarshi shahri bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi 1 356,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,6 %** ni tashkil etib, bu esa **1 137,9 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **905,6 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **33,0 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

905,6

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

1 137,9

93,3

O'sish sur'ati, % da

110,8

2020- y. yanvar-aprel


2021- y. yanvar-aprel

2021- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 85,8 % ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)



Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosini,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda



Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar



Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi 85,5 % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **635,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **603,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **17,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **17,3 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **160,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **127,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **129,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **88,6 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **5,3 %** ni tashkil etadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **6,1 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**



**Sug'urta bo'yicha
xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **88,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **6,1 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **5,5 %**.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-aprel oylarida)

2021- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **185,9** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **118,0 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turi hajmi **154,5** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiylar hajmining **5,6 %** iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **113,2 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar aprel

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **96,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-aprel**



**2021- y.
yanvar-aprel**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,4 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **171,5** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **143,5 %** ni tashkil etdi.

**115,8
mlrd.
so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**171,5
mlrd.
so'm**

**2020- y.
yanvar-
aprel**



**2021- y.
yanvar-
aprel**

114,4 %

**O'sish sur'atlari,
% da**

143,5 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **115,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa o'sish **14,4 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

82,1 mlrd.
so'm

2020- y.
yanvar-aprel

109,8
mlrd. so'm

2021- y.
yanvar-aprel

76,6 %

113,0 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **27,7 mlrd. so'mga** ortdi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

93,0 %

2021- y. yanvar-aprel

7,0 %

7,0 %

93,0 %



2020- y. yanvar-aprel

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'g'ini hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,0 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.

yanvar-aprel

2021- y.

39,6
mlrd. so'm

Xizmatlar
hajmi

57,0
mlrd. so'm

99,1 %

O'sish
sur'ati

130,9 %

1,5 %

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

1,5 %




2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-aprel oylarida)



2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi eng katta ulush – **38,2 %** ni Qarshi shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mirishkor tumanida – **2,4 %** qayd etildi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

| Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|--|----------------------|----------------------|-------------|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| Qashqadaryo viloyati * | 3 718,4 | 122,8 | 96,4 |
| Qarshi sh. | 1 402,7 | 112,5 | 96,8 |
| Shahrisabz sh. | 163,5 | 127,9 | 96,9 |
| tumanlar: | | | |
| G'uzor | 157,3 | 124,4 | 93,9 |
| Dehqonobod | 127,9 | 129,8 | 95,5 |
| Qamashi | 158,4 | 124,6 | 93,6 |
| Qarshi | 188,0 | 121,1 | 93,6 |
| Koson | 230,6 | 117,6 | 96,6 |
| Kitob | 212,2 | 127,3 | 94,4 |
| Mirishkor | 90,2 | 121,1 | 92,1 |
| Muborak | 181,4 | 123,1 | 95,0 |
| Nishon | 144,4 | 121,8 | 92,2 |
| Kasbi | 110,0 | 129,5 | 95,7 |
| Chiroqchi | 207,9 | 124,5 | 91,8 |
| Shahrisabz | 162,0 | 124,0 | 91,6 |
| Yakkabog' | 181,9 | 123,4 | 93,2 |

* Tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik Tumanlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**1 112,6
ming so'm**



Hajmning o'sishi

**278,8
ming so'mga**



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 112,6 ming so'mga** yetdi.

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **833,9 ming so'mni** tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- may holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

**19 673
968
birlik**

121,9 %



**3 530
birlikga**

58,0 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

**Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi**

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **58,0 %**, sanoat **13,1 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **19,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,9 %** ga to'g'ri keladi.

**2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi**

Sanoat

Xizmatlar

19,0 %

13,1 %

9,9 %

58,0 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **61,2 %** ni, sanoat **13,2 %** ni, qurilish **11,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,7 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(45,0 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,0 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 45,0

Boshqa turdag'i xizmatlar – 36,2

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 8,2

Tashish va saqlash – 5,0

Axborot va aloqa – 2,0

Sog'liqni saqlash – 3,6


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **67,0** % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **74,5** % ga to'g'ri keldi.

